

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ACHILOV ILMURAD NEYMATOVICH

**SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA QURILISH
MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора экономических наук (DSc)

Content of dissertation abstract of Doctor of Economic Sciences (DSc)

Achilov Ilmurad Neymatovich

Sifat menejmenti tamoyillari asosida qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish 3

Ачилов Илмурад Нейматович

Совершенствование методологии управления производственными процессами в промышленности строительных материалов на основе принципов менеджмента качества..... 37

Achilov Ilmurod Nematovich

Improving the methodology for managing production processes in the construction materials industry based on quality management principles 75

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 80

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2026.09.01.I.04.M RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ACHILOV ILMURAD NEYMATOVICH

**SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA QURILISH
MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQRARISH JARAYONLARINI
BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida _____ raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Saidov Mash'al Samadovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gulyamov Saidahror Saidahmedovich
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

Yadgarov Akram Akbarovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Baxtiyor Vasiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2026.09.01.I.04.M raqamli ilmiy kengashning 2026 yil "____" _____ kuni soat _____ dagi majlisda bo'lib o'tadi. Manzil: 100194, Toshkent shahar, Yangi shahar ko'chasi, 9A-uy. Tel.: (99855) 508-02-95; e-mail: devon@taqu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100194, Toshkent shahar, Yangi shahar ko'chasi, 9A -uy. Tel.: (99855) 508-02-65. kutubxona@taqu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2026 yil) « ____ » _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.M.Ismailov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

A.D.Metyakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

N.A.Xodjayeve

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyalashuvi va raqamlashuvining kuchayishi iqtisodiyot tarmoqlari sifat ko'rsatkichlaridan foydalanish va uni samarali boshqarishning sezilarli darajada oshishini taqozo etmoqda. Sifat ko'rsatkichlarini boshqarish nafaqat mamlakat, balki korxonalar darajasida ham samarali amalga oshirilishi talab etilmoqda. Muntazam o'zgarib boruvchi tashqi muhitda zamonaviy qurilish sanoati korxonalarining optimal rivojlanishi va faoliyatini ta'minlaydigan resurslarga erishish mazkur yo'nalishdagi asosiy muammolardan biriga aylanmoqda. Sifat ko'rsatkichlaridan foydalanish darajasini oshirish qurilish korxonalariga qo'shimcha raqobat ustunligini qo'lga kiritish va bozorda yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida nafaqat texnologiyalarni, balki qurilish jarayonini tashkil etish usullarini ham takomillashtirish imkonini beradi. «Qurilish sanoati sohasi hozirda infratuzilma obyektlari va sanoat loyihalaridan turar-joy hamda tijorat ko'chmas mulklariga o'tish davrini boshidan kechirmoqda. Bu esa yuqori sur'atdagi urbanizatsiyalashuv bilan bog'liq. Jumladan, dunyo miqyosida 2021 - 2025 yillar oralig'ida turar-joy va tijorat ko'chmas mulklari qurilishiga global xarajatlar taxminan 17 trillion dollarga o'sishi kutilmoqda»¹. Bu esa beqaror ish sharoitida faoliyat yuritayotgan qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlarini munosib baholash va samarali boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda.

Jahonda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlari darajasini o'rganish va uni baholashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlari darajasini shakllantirish, uni miqdoriy baholash, bu boradagi turli-tuman nazariy va uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va mazkur korxonalarning iqtisodiy faoliyati natijasida umumiy manfaatning ortib borishini tadqiq etish, sifat ko'rsatkichlarini baholash va boshqarishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, qurilish sanoati korxonalarining raqobat muhitini yanada yaxshilash bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda zamonaviy qurilish sanoati korxonalarini tashkil etish va boshqarishda iqtisodiy muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida yuqori sifat ko'rsatkichlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zining sifat ko'rsatkichlarini samarali boshqaradigan va bozorga turli yangiliklarni muvaffaqiyatli olib kiruvchi korxona yuqori raqobatdosh ustunliklarga ega bo'ladi. Shunga ko'ra, O'zbekistondagi qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyatini boshqarish masalalariga yetarlicha e'tibor qaratish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning sifat ko'rsatkichlarini boshqarish amaliyotini takomillashtirishga oid vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi «sifat ko'rsatkichlari» tushunchasining mazmunini nazariy-uslubiy jihatdan

¹ <https://promo.severstal.com/digest/construction/tpost/8m15v4idue-obzor-mirovoi-stroitelnoi-otrasli-progno#>:

takomillashtirish, qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish, qurilish obyektlarini ro'yxatga olishdan boshlab, foydalanishga qabul qilishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni raqamlashtirish asosida qurilish tarmog'ini boshqaruv idoralari real vaqt rejimida ishlovchi monitoring tizimlari bilan uyg'unlashtirish, sifat ko'rsatkichlarini boshqarishda qurilish sanoati korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, boshqaruv, marketing, mehnat, innovatsion va ehtimoliy resurslarlarini integral baholash tizimini ishlab chiqish, qurilish sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda sifat ko'rsatkichlarini boshqarishning samarali vositalariga asoslangan uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-son "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020 yil 27 noyabrdagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2018 yil 7 maydagi PQ-3698-son "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2019 yil 23 maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi. Qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlarini boshqarish uslubiyotini takomillashtirish masalalari jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Massachusetts Institute of Technology (AQSH), Stanford University (AQSH), Harvard University (AQSH), University of Oxford (Buyuk Britaniya), ETH Zurich (Shveysariya), National University of Singapore (Singapur), Tsinghua University (Xitoy), Australian National University (Avstraliya), The University of Tokyo (Yaponiya), University of Toronto (Kanada), Seoul National University (Janubiy Koreya), LudwigMaximilians-Universitat Munchen (Germaniya), Sankt-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti, Ural davlat iqtisodiyot universiteti, Rossiya oliy iqtisodiyot maktabi (Rossiya), Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent arxitektura-qurilish universiteti (O'zbekiston) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sifat ko'rsatkichlarining ta'siriga oid tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy va amaliy natijalar olingan, mehnat resurslarining korxona iqtisodiy jarayonlaridagi o'rni (University of Chicago, AQSH), uni ishlab chiqarish omili ekanligini intellektual kapitalda ifodalanishini baholash (University of NebraskaLincoln, AQSH), globallashuv sharoitida mehnat resurslarining mintaqaviy rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan (University of Lodz, Polsha), ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mehnat resurslarining jamg'arilishi va inson resurslarining o'sib borishidagi ahamiyati (Edinburgh Napier University, Buyuk Britaniya; University of Limerick, Irlandiya; The University of the West Indies, Shimoliy Amerika), iqtisodiy o'sishning boshqaruv resurslariga bog'liqligi va uning rivojlanish konsepsiyasi (University of Oregon, AQSH), mehnat resurslarini tashkil etuvchi intellektual kapitalning tadbirkorlik resursi ekanligi (Aston University, Buyuk Britaniya), korxonalarda mehnat va boshqaruv resurslarining mohiyati, unga falsafaviy va texnikaviy qarash asosida korxona aktivlari elementlarini takomillashtirish asosida yaxshilash (Islamic Azad University, Eron), mehnat resurslari sifatida intellektual kapitalni qimmatli resursga aylanishi (School of Management and Bass Center of Leadership, Binghamton University, State University of New York, AQSH), mehnat unumdorligi masalalari (International Polytechnic Institute of Viana do Castelo, Portugaliya), riskning boshqaruq resurslariga ta'siri (University of Pennsylvania, AQSH), ishlab chiqarish resurslarining iqtisodiy o'sishga ta'siri (Universitas Jenderal Soedirman, Indoneziya), inson tomonidan yaratilgan moddiy va nomoddiy aktivlarning sifat ko'rsatkichlari konsepsiyasi bilan bog'liqligi ko'rib chiqilgan (M.V.Lomonosov nomidagi Moskva Davlat Universiteti; G.V.Plexanov nomidagi Rossiya Iqtisodiyot Universiteti, Rossiya).

Jahon miqyosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sifat ko'rsatkichlarining modernizatsiyalashga ta'sirini takomillashtirish borasida, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ishlab chiqarish samaradorligini sifat ko'rsatkichlarining ta'sirini e'tiborga olgan holda oshirish; korxonalar sifat ko'rsatkichlarini baholashga oid nazariy va uslubiy qarashlarni takomillashtirish; korxona sifat ko'rsatkichlarining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mehnat resurslari, innovatsion va boshqaruv resurslarining korxona sifat ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash; korxonalar sifat ko'rsatkichlarini samarali boshqarishning korxona iqtisodiy jihatdan o'sishiga erishishning ilmiy asoslarini takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlari muammolarining turli yo'nalishlari jumladan, uni takomillashtirish jihatlari bilan bog'liq jarayonlar xorijiy ilmiy maktab vakillari Y.Shumpeter, G.Mensh, J.Forrester, I.Ansoff, E.Dixtl, X.Xermgen, F.Kotler, D.Liti, K.Allen², D.Bell,

² Аллен К. Продвижение новых технологий на рынок. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. – 455 с.; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Lundvall, B.A. National Systems of Innovation: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning / B.A. Lundvall. London:

P.Draker, B.Lundval, N.Mazur, N.Rozenberg, R.Nelsonlar tomonidan o'rganilgan.

Mazkur yo'nalishda MDH davlatlari iqtisodchi olimlaridan S.D.Ilenkov, V.Ivanov, R.Fatxuddinov, A.Porshneva, K.Puznya, A.Rumyansev, A.I.Plotnikov, K.Dryus, YE.G.Yegorov, S.R.Agarkov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida sifat ko'rsatkichlarini baholash hamda uni boshqarish masalalari tadqiq etilgan.

O'zbekiston Respublikasida qurilish kompleksining innovatsion rivojlanishi va uning moddiy-texnik bazasi iqtisodiy samaradorligini oshirish muammolari SH.N.Zaynutdinov, M.K.Ziyayev, A.N.Djabriyev, R.I.Nurimbetov, B.D.Kalmetov, V.A.Kazimov, R.I.Gimush, S.M.Niyazov, A.Suyunov, E.X.Mahmudov, SH.K.Qurbaniyazova³, M.A.Ikramov, M.A.Mahkamova, N.M.Maxmudov, A.F.Rasulev G.J.Allayeva ilmiy tadqiqot ishlarida ayrim tomonlari ko'rib chiqilgan⁴.

Yuqorida qayd etilgan ilmiy tadqiqotlar o'rganilayotgan muammoning tizimli yondashuvini aks ettirsada, biroq mamlakatimizda ushbu sohadagi tadqiqotlar muhim qimmatga ega ekaniga qaramasdan, hozirgi kunda qurilish sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarish usullarini joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Shu bilan birga, qurilish sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlarini faollashtirish tizimli yondashuvga asoslangan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida to'liq o'rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining tanlanishi, uning maqsadi va aniq vazifalarini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot

Pinter Publishers, 2002; Мазур Н.З. Инновационная экономика: инновационные системы. Интеллектуальная собственность / Н.З. Мазур. –Самара: Издательство СНЦ РАН», 2001; Иванов В.В. Национальные инновационные системы: теория и практика. Шумпетер Й.А. История экономического анализа. / Й.А. Шумпетер; Пер. с англ. под ред. В.С.Автономова. СПб.: Экон. шк.: С.-Петербург. гос. ун-т экономики и финансов; М. : Высш. шк. экономики, 2001. - 1664 с.; Фатхутдинов, Р.Ф. Инновационный менеджмент / М., 2016.; Radosevic S. Region Innovation Systems in Central and Eastern Europe: Determinants, Organizers and Alignments. –Brighton: University of Sussex, 2012.

³Зайнутдинов Ш. Н., Нуримбетов Р. И. Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект) // Бюллетень науки и практики. Электрон.журн. 2017. №10 (23). С. 207-212. Режим доступа: <http://www.bulletennauki.com/zaynutdinov> (дата обращения 15.10.2017);Зияев М.К.,Давлетов И.Х. Совершенствование управления инвестиционно-строительным процессом в условиях углубления рыночных отношений // Инвестиционный потенциал банков: вызовы, возможности и перспективы: Матер. межд. науч.-практ.конф. БФА РУз, 26-27 сентября 2008 г. – Ташкент: “Молия”, 2008. - С.46-49; Кальметов Б.Д., Казимов В.А., Гимуш Р.И. Углубление экономических реформ в строительном комплексе Узбекистана. Монография Ташкент, 2006. 186 с.; Ниязов С.М. Экономическое реформирование производственно-технической базы строительства.-Т.: Изд-во«Fan va texnologiya», 2010.-176с.; Суюнов А. Модернизация экономики капитального строительства на основе совершенствования инвестиционных процессов.- Т.: «Fanvatehnologiya», 2010.-164 с.; Махмудов Э. Х. Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) Ташкент: Иктисодиёт, 2013. 131 с.; Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-эксперт, 2017 йил, №11(119). (08.00.00; № 3).

⁴ Икромов М.А. , Алимов Е.А. Формирование спроса , как фактор инновационного развития Узбекистан. Материалы международной конференции. «Экономический рост России: проблемы и стратегические перспективы», с . 38-44, 2019; Махкамova М.А. Теория инновационного менеджмента. Монография. – Ташкент, « Fan va texnologiya»,2019; Махмудов Н.М., Хамидов С.О., Авазов Н.Р., «Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида саноат тармоқларини ривожлантириш. Монография. Тошкент 2020й; Расулев А.Ф., Алимов Р. Стимулирование инновационной активности в экономике // Общество и экономика. –М.: Нуримбетов Р.И., Калмуратов Б. Инновацион бошқариш стратегиясининг аҳамияти // Jamiyat va boshqaruv. – Т.: 2010 йил, № 2–Б. 73-75.

Toshkent arxitektura-qurilish universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi sifat menejmenti tamoyillari asosida qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korxonalar sifat ko'rsatkichlarini boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini tadqiq etish;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarni baholashning ilmiy jihatlarini rivojlantirish;

qurilish materiallari sanoati korxonalari innovatsion va boshqaruv resurslarini boshqarish samaradorligini baholashning me'zon va usullarini ishlab chiqish;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarining shakllanishi va ulardan foydalanishni tizimlashtirish;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini faollashtirishning ssenariylarini ishlab chiqish;

sifat ko'rsatkichlari elementlaridan samarali foydalanish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining 2035 yilgacha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati belgilangan.

Tadqiqotning predmetini sifatida qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida terminologik tahlil, omilli tahlil, SWOT-tahlil, korrelyatsion-regression tahlil, ekspert baholash, so'rovnoma, iqtisodiy-matematik kabi usullardan hamda tizimli, ehtimoliy-adaptiv yondashuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarining tarkibiy qismlari sifatida mahsulotlarning standartga muvofiqlik koeffitsiyenti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar koeffitsiyenti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste'molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi va har bir bosqichdagi nuqsonlar darajasi kabi ko'rsatkichlarning o'rtacha integral qiymatlari sifatida takomillashtirilgan;

qurilish materiallari korxonalarining sifat jarayonlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish resursi, marketing resursi, boshqaruv resurslari, mehnat resurslari va innovatsion resurslarning samaradorligi hamda rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik

ko'rsatkichlarini baholash mezonlari tizimi, barcha mavjud resurslar turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisi sifatida takomillashtirilgan;

har bir hududda yirik qurilish materiallari korxonalari doirasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjiri asosida mahsulot sifatini ta'minlovchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish taklifi asoslangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat darajasini boshqarishda korxonalar mahsulotlarining standartga muvofiqlik koeffitsiyenti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar koeffitsiyenti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste'molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi va har bir bosqichdagi nuqsonlar darajalarini integral baholash bo'yicha «yuqori» ($1,00 \geq I_s \geq 0,85$), «barqaror» ($0,84 \geq I_s \geq 0,70$), «xavfli» ($0,69 \geq I_s \geq 0,50$) va «yuqori xavfli» ($0,49 \geq I_s \geq 0,00$) miqdoriy chegaralari doirasida belgilash asoslangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda sifat ko'rsatkichlarini baholashning samarali vositalariga asoslangan holda 2035-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlari ko'rsatkichlari aniqlangan va ularni integrallashtirish zarurligi ko'rsatilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan;

ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sifat ko'rsatkichlarini boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan uslublar asosida moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish, innovatsion, mehnat, boshqaruv va marketing resurslarlarining o'zaro bog'liqligi va ularning natijalarini baholash mumkinligi asoslangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyati natijalari asosida sifat ko'rsatkichlarini baholash uslubiyoti shlab chiqilgan;

turli mulkchilik shakllariga ega qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini ta'minlashda sifat ko'rsatkichlarining roli va uni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan;

qurilish materiallari sanoati korxonalari samaradorligini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini faollashtirishning ssenariylarini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuvlar hamda usullarning ilmiy va uslubiy jihatdan asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan empirik tadqiqotlarning o'rnatilgan uslubiy asosga egaligi, xulosa va takliflarning qurilish sohasiga vakolatli idoralar va tashkilotlardan o'tganligi hamda tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari sanoati korxonalari tizimini iqtisodiy jihatdan baholash va uning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, qurilish tarmog'i iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati vazirlik va idoralar tomonidan qurilish materiallari sanoati korxonalari tizimi rivojlanishi va raqobatbardoshligiga baho berishda, undagi muammolarni aniqlashda va boshqarishda, qurilish tarmog'ini tizimining rivojlanish istiqbollarini belgilashda foydalanilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini samarali boshqarishni ta'minlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarining tarkibiy qismlari sifatida mahsulotlarning standartga muvofiqlik ko'effitsienti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar ko'effitsienti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste'molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi va har bir bosqichdagi nuqsonlar darajasi kabi ko'rsatkichlarning o'rtacha integral qiymatlari sifatida takomillashtirish taklifiga nazariy-uslubiy asos oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan «Qurilish iqtisodiyoti» nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 18 avgustdagi 356-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, barcha mavjud resurslar turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisi sifatidagi "sifat ko'rsatkichlari" tushunchasi mazmunining nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, oliy ta'lim tizimi talabalari tomonidan ushbu soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish imkoni yaratilgan;

har bir hududda yirik qurilish materiallari korxonalari doirasida qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha bo'lgan qo'shilgan qiymat zanjiri asosida mahsulot sifatini ta'minlovchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish taklifi Dorus Eden MCHJ ning 10.12.2025 yildagi 32-sonli ma'lumotnomasi asosida qurilish sanoati korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 06.05.2026 yildagi 02/15-1216-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini samarali oshirish orqali qo'shilgan qiymat zanjirida sof foydaning 10-15 foizga oshishiga erishilgan;

qurilish materiallari korxonalarining sifat jarayonlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili moliyaviy resurslar, ishlab chiqarish resursi, marketing resursi, boshqaruv resurslari, mehnat resurs va innovatsion resurslarining samaradorligi va rivojlanishi tavsifi, tahlil obyektining retrospektiv va perspektiv analitik ko'rsatkichlarini baholash me'zonlari tizimi, barcha mavjud resurslar turlari umumiy qobiliyatlari yig'indisi sifatidagi taklifi Dorus Eden MCHJ ning 10.12.2025 yildagi 32-sonli ma'lumotnomasi asosida qurilish sanoati korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 06.05.2026 yildagi 02/15-1216-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimida kamchiliklar bartaraf etilib, mazkur platformada qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlari ko'rsatkichlarining 1,19 ko'effitsiyent birligida oshishiga erishilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat darajasini boshqarishda korxonalar mahsulotlarning standartga muvofiqlik koeffitsienti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar koeffitsienti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste'molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi va har bir bosqichdagi nuqsonlar darajalarini integral baholash bo'yicha «yuqori» ($1,00 \geq I_s \geq 0,85$), «barqaror» ($0,84 \geq I_s \geq 0,70$), «xavfli» ($0,69 \geq I_s \geq 0,50$) va «yuqori xavfli» ($0,00 \geq I_s \geq 0,49$) miqdoriy chegaralari doirasida baholash taklifi Dorus Eden MCHJ ning 10.12.2025 yildagi 32-sonli ma'lumotnomasi asosida qurilish sanoati korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 06.05.2026 yildagi 02/15-1216-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini baholash tizimini joriy etishga va ushbu chora-tadbirlar qurilish materiallari sanoati korxonalari foydasini 10-12 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalaridagi iqtisodiy jarayonlarning asosiy tendensiyalari hamda sifat ko'rsatkichlarini baholashning samarali vositalariga asoslangan holda 2035 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Dorus Eden MCHJ ning 10.12.2025 yildagi 32-sonli ma'lumotnomasi asosida qurilish sanoati korxonasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston qurilish materiallari sanoati korxonalari uyushmasining 06.05.2026 yildagi 02/15-1216-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida qurilish materiallari sanoati korxonalarini samarali tashkil etish ssenariylari ishlab chiqilgan va ular faoliyatini optimallashtirish uchun imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatliyadan o'tkazilganligi. Tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish, jumladan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 13 ta maqola, shundan 10 tasi mahalliy va 3 tasi xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 236 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MA'ZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflab berilgan, O'zbekiston Respublikasida fan va texnikaning ustuvor vazifalariga muvofiqligi ko'rsatib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Sifat menejmenti tamoyillari asosida qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentining shakllanish manbalari batafsil keltirilgan va ularning asosiy

xususiyatlari yoritilgan, shu bilan birga sifat menejmentining rivojlanish bosqichlari, omillari va tamoyillari keng o‘rganilgan hamda qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va ushbu sohaning o‘ziga xos xususiyatlari keng yoritilgan.

1-jadval

«Sifat menejmenti» tushunchasiga turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar⁵

№	Mualliflar	Ta’rif
1	A.V.Feygenbaum	“Sifat menejmenti tashkilotdagi turli guruhlarining sifatni rivojlantirish, saqlash va yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlarini bir tizimga keltirib, iste’molchini to‘liq qondirishga xizmat qiladi” ⁶ .
2	Filip B.Krosbi	“..... sifat - talablarga muvofiqlikdir. Shuning uchun sifat menejmentining asosi talablarni aniq belgilash, nuqsonni tekshirishdan ko‘ra uning oldini olish va “nol nuqson” tamoyiliga intilishdan iborat” ⁷ .
3	Jozef M.Juran	“Sifat menejmenti sifatni rejalashtirish, nazorat qilish va yaxshilashdan iborat o‘zaro bog‘liq jarayonlar majmuasidir” ⁸ .
4	Jon S. Oklend	“Sifat menejmenti- butun tashkilot raqobatbardoshligi, samaradorligi va moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan keng qamrovli boshqaruv yondashuvidir; u barcha bo‘linmalar va xodimlarni qamrab oladi” ⁹ .
5	Kaoru Isikava	“Sifat menejmenti “company-wide quality control” sifatida talqin qilinadi, ya’ni yuqori rahbariyatdan to ish joyidagi xodimgacha barcha ishtirok etadigan umumkorxonaviy sifat boshqaruvidir” ¹⁰ .
6	Yu.K.Proxorov	“Mahsulot sifati menejmenti - bu omillar va sharoitlarga doimiy, rejali va maqsadli ta’sir ko‘rsatish jarayoni bo‘lib, u optimal sifatidagi mahsulotni yaratish va undan foydalanishda shu sifatni saqlashni ta’minlaydi” ¹¹ .
7	G.R.Xamidullina	“Sifat menejmenti mahsulot (yoki xizmat) hayotiy siklining barcha bosqichlarini, shuningdek tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siri boshqarish faoliyatidir; uning maqsadi iste’molchi va jamiyat talablarini qondiradigan sifat darajasini o‘rnatish, ta’minlash va saqlashdir” ¹² .
8	V. V. Okrepilov	“Sifat menejmenti sifat talablarini bajarishga xizmat qiluvchi usullar va faoliyat turlari majmuasi bo‘lib, tashkilotning barqaror samaradorligiga xizmat qiladi” ¹³ .
9	D.Xakimjonova	“Sifat menejmenti mahsulot ishlab chiqarishning har bir bosqichida sifat haqida qayg‘urishni anglatadi; sifatni boshqarish esa shu g‘oyani amalda ta’minlovchi bosqichlar tizimidir” ¹⁴ .
10	J. X.Kambarov, Sh. Ruziev, B. Xursanaliyev	“Sifat menejmenti mahsulot rivojlanishining har bir bosqichida sifat haqida qayg‘urishni anglatadi; zamonaviy yondashuvda sifat uchun faqat maxsus bo‘lim emas, balki rahbariyat ham javob beradi” ¹⁵ .
11	Muallif talqini	Sifat menejmenti - bu tashkilotda mahsulot yoki xizmat sifatiga ta’sir etuvchi barcha jarayonlar, resurslar, boshqaruv qarorlari va nazorat mexanizmlarini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, baholash va uzluksiz takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv tizimidir.

Qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sement, beton, temir-beton buyumlari, g‘isht, keramika, quruq aralashmalar, oyna, gips mahsulotlari va boshqa materiallar qurilish ob’ektlarining mustahkamligi, xavfsizligi, iqtisodiy samaradorligi hamda uzoq muddat xizmat

⁵ O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

⁶ Feigenbaum, A.V. Total Quality Control. 3rd ed. New York: McGraw-Hill, 1983.

⁷ Crosby, P.B. Quality Is Free: The Art of Making Quality Certain. New York: McGraw-Hill, 1979.

⁸ Juran, J.M., Godfrey, A.B. (eds.). Juran’s Quality Handbook. 5th ed. New York: McGraw-Hill, 1999.

⁹ Oakland, J.S. Total Quality Management: Text with Cases. 3rd ed. Oxford: Butterworth-Heinemann, 2003.

¹⁰ Japan Union of Scientists and Engineers. Prof. Ishikawa and Quality Control. Chapter 8.

¹¹ 6. Прохоров Ю.К. Управление качеством: учебное пособие. Санкт-Петербург, 2007.

¹² Хамидуллина Г.Р., Гатина Г.Р. Управление качеством: конспект лекций. Казань, 2014.

¹³ Окрепилов В.В. Экономика качества - важнейшее направление развития экономической науки. 2022.

¹⁴ Хакимжонова Д. «Менежмент ва маркетинг асослари» фанидан маърузалар матни. ТАТУ, Тошкент, 2012.

¹⁵ Камбаров Ж.Х., Рузиев Ш., Хурсаналиев Б.Ф. Сифат менежменти. Тошкент, 2022.

qilish qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli mazkur tarmoqda sifat menejmenti faqat tayyor mahsulotni nazorat qilish bilan cheklanmaydi; u xomashyoni tanlashdan tortib texnologik rejimlarni boshqarish, laboratoriya sinovlari, omborlash, logistika, iste'molchi shikoyatlarini tahlil qilish va uzluksiz takomillashtirishgacha bo'lgan yaxlit boshqaruv tizimini anglatadi.

Sifat menejmenti deganda korxonada mahsulot va jarayonlarni iste'molchi talablari, texnik me'yorlar, standartlar hamda xavfsizlik talablariga muvofiq tarzda rejalashtirish, ta'minlash, nazorat qilish va takomillashtirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati tushuniladi. Zamonaviy yondashuvda sifat masalasi faqat texnik bo'lim yoki laboratoriyaning vazifasi emas, balki rahbariyat, ishlab chiqarish, ta'minot, muhandislik, logistika va marketing bo'linmalarini qamrab oluvchi integral boshqaruv funksiyasi sifatida qaraladi. ISO 9001 standarti sifat menejmentini mijoz talablari va qo'llaniladigan me'yoriy talablarga mos mahsulot va xizmatlarni barqaror yetkazib berishga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin qiladi¹⁶.

Keltirilgan 1-jadvalda "sifat menejmenti" tushunchasiga oid g'arb, Rossiya va MDH hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlarining ta'riflari va talqinlari jadval ko'rinishida keltirilgan. Ayrim mualliflar ushbu tushunchani «quality management», «total quality management (TQM)» yoki «company-wide quality control» atamaları orqali izohlashgan.

Shundan kelib chiqqan holda, muallif fikricha qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti-bu tarmoq korxonalarida mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi texnologik, tashkiliy, iqtisodiy va nazorat jarayonlarini o'zaro muvofiqlashtirish orqali qurilish materiallarining normativ talablar, texnik standartlar, xavfsizlik mezonlari va iste'mol qiymatiga mosligini ta'minlashga yo'naltirilgan, shu bilan birga ishlab chiqarish samaradorligi va tarmoq raqobatbardoshligini oshirishni ko'zda tutuvchi integral boshqaruv tizimidir.

Sifat menejmenti sifatni boshqarishning nazariy-uslubiy asoslarini, shuningdek korxonalarda ISO 9000 oilasiga mansub xalqaro standartlar asosida sifat bo'yicha ishlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi. Korxonalarda xalqaro standartlarning joriy etilishi iste'molchiga mahsulot sifati barqarorligining qo'shimcha kafolatini beradi, chunki bu sifatga yo'naltirilgan tizimli ish yuritishga erishishni ta'minlaydi.

Mahsulot va xizmatlar sifatiga qo'yiladigan yuqori talablar korxona raqobatbardoshligini ta'minlash zaruratidan kelib chiqadi. Sifatning raqobatbardoshlikni ta'minlashdagi asosiy omil sifatidagi rolini tushunish uchun shuni nazarda tutish kerakki, raqobat bozor mexanizmining asosiy unsurlaridan biri bo'lib, u tirik tabiatdagi tabiiy tanlanish kabi ishlab chiqaruvchini bozorda muvaffaqiyatli ilgari surilish uchun mahsulotni cheksiz takomillashtirishga majbur etadi. «Nima uchun korxona mahsulot sifatini yaxshilashi kerak?» degan savolga to'g'ridan to'g'ri javob beramiz. Birinchidan, ishlab chiqaruvchining bozordagi mavqeini mustahkamlash uchun, chunki faqat yuqori sifatli mahsulot o'z iste'molchisini topadi.

¹⁶ ISO. ISO 9001:2015 – Quality management systems. ISOнинг расмий стандарти тавсифи ва талаблар шархи.

Ikkinchidan, mahsulotning muvaffaqiyatli realizatsiyasi foydaning ortishi orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi.

Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi nihoyatda keskin raqobat sharoitida mahsulot va xizmatlarning yuqori sifatini ta'minlash uchun kurash nafaqat faoliyatning ustuvor yo'nalishi, biznesning strategik imperativi, balki ijtimoiy siyosatning ham muhim yo'nalishiga aylanadi va pirovard natijada milliy boylarning belgilovchi manbai bo'lib xizmat qiladi.

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentining shakllanishi bir nechta tarixiy, ilmiy va amaliy manbalarga tayanadi. Birinchi manba - klassik boshqaruv nazariyasi va ilmiy tashkil etish g'oyalari. F. Teylor, A. Fayol va boshqa olimlar mehnatni ratsional tashkil etish, ish jarayonini me'yorlash, vazifalarni aniq taqsimlash va ijro intizomini kuchaytirish orqali natija sifatiga ta'sir qilish mumkinligini asoslab berdilar. Bu yondashuv keyinchalik qurilish materiallari ishlab chiqarishida texnologik intizom, operatsiya kartalari, yo'riqnomalar va me'yoriy hujjatlar tizimining shakllanishiga zamin yaratdi (2-jadval).

Ikkinchi manba - statistik sifat nazorati va o'lchash madaniyatidir, uchinchi manba - total sifat menejmenti (TQM) konsepsiyasidir, to'rtinchi manba - xalqaro standartlashtirish va sertifikatlashtirish amaliyotidir, beshinchi manba - tarmoqqa xos texnik reglamentlar, standartlar va laboratoriya sinovlari tizimidir, oltinchi manba-raqamlashtirish, avtomatlashtirish va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruvdir.

2-jadval

Sifat menejmentining shakllanish manbalari va tarmoqqa ta'siri¹⁷

№	Manba	Asosiy mazmun	Qurilish materiallari sanoatida ifodalanishi
1	Klassik boshqaruv	Mehnatni tashkil etish, me'yorlash, mas'uliyatni taqsimlash	Texnologik yo'riqnomalar, operatsiya kartalari, ijro intizomi
2	Statistik sifat nazorati	O'lchash, namuna olish, variatsiyani tahlil qilish	Laboratoriya sinovlari, nazorat kartalari, partiya tahlili
3	TQM falsafasi	Mijozga yo'nalish, barcha xodimlar ishtiroki, uzluksiz yaxshilash	Sifat madaniyati, nuqsonning oldini olish, jamoaviy mas'uliyat
4	ISO standartlari	Jarayonli yondashuv, riskka asoslangan fikrlash, hujjatlashtirish	QMS, ichki audit, muvofiqlik va sertifikatlashtirish
5	Tarmoq standartlari	Mahsulotga xos texnik talablar va sinov mezonlari	Mustahkamlik, zichlik, qotish vaqti, sovuqqa chidamlilik nazorati
6	Raqamlashtirish	Onlayn monitoring, ma'lumotlar bazasi, tezkor tahlil	Avtomat dozalash, sensorlar, elektron protokol va traceability

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentining asosiy xususiyatlaridan biri - texnologik jarayonlarning uzluksizligi va ko'p bosqichlilikidir (3-jadval). Sifat menejmenti tarmoqda yakuniy mahsulotni tekshirishdan ko'ra, jarayonni oldindan barqarorlashtirish va og'ishlarni erta bartaraf etishga ko'proq tayanadi.

Ikkinchi xususiyat - xomashyo sifatining tabiiy o'zgaruvchanligidir, uchinchi xususiyat - me'yoriy talablar va xavfsizlikka yuqori darajada bog'liqlikdir, to'rtinchi xususiyat - laboratoriya va metrologiya xizmatining hal qiluvchi ahamiyatidir, beshinchi xususiyat - iste'molchi talablari va loyiha xususiyatlariga moslashuvchanlikdir, oltinchi xususiyat - profilaktik yondashuv va xavfga

¹⁷ O'rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

asoslangan fikrlashning ustuvorligidir, yettinchi xususiyat - uzluksiz takomillashtirish va iqtisodiy samaradorlikning o‘zaro bog‘liqligidir va sakkizinchi xususiyat -bu sifat, ekologiya va mehnat xavfsizligining integratsiyalashuvidir, to‘qqizinchi xususiyat – esa ta’minot zanjiri bo‘ylab kuzatuvchanlikni ta’minlash zaruratidir.

3-jadval

Qurilish materiallari tarmog‘ida sifat menejmentining asosiy xususiyatlari¹⁸

№	Xususiyat	Amaliy mazmun
1	Jarayonli yondashuv	Sifat yakuniy mahsulotda emas, ishlab chiqarishning har bir bosqichida shakllanadi.
2	Xomashyo variatsiyasi	Tabiiy resurslar tarkibining o‘zgarishi dozalash va retsepturani doimiy moslashtirishni talab qiladi.
3	Yuqori xavfsizlik darajasi	Mahsulotdagi xatolar inshoot mustahkamligi va inson xavfsizligiga ta’sir qiladi.
4	Laboratoriya va metrologiya	Sifat qarorlari aniq o‘lchash, kalibrlash va sinov natijalariga tayanadi.
5	Mijoz va loyihaga moslashuvchanlik	Bir mahsulot turi turli ob’ekt va ekspluatatsiya sharoitlari uchun turlicha talablarga ega bo‘ladi.
6	Profilaktik boshqaruv	Nuqsonni keyin bartaraf etishdan ko‘ra, kelib chiqish sabablarini oldindan bartaraf etish ustuvor.
7	Uzluksiz takomillashtirish	Nuqson, chiqindi, energiya sarfi va reklamatsiyalarni kamaytirish orqali raqobatbardoshlik oshadi.
8	Integratsiyalashgan yondashuv	Sifat ekologik talablar, mehnat xavfsizligi va ta’minot zanjiri boshqaruvi bilan uyg‘unlashadi.

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentining amaliy samarasi bir nechta ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi: nuqsonli partiyalar ulushining kamayishi, standartdan chetlanishlar sonining qisqarishi, ishlab chiqarishda qayta ishlash xarajatlarining pasayishi, iste’molchi reklamatsiyalarining kamayishi, mahsulot barqarorligining ortishi va brend ishonchining mustahkamlanishi. Shu bilan birga, sifat menejmenti korxonaga bozorda yuqori segmentga chiqish, davlat va xususiy buyurtmalarda ishtirok etish, eksport salohiyatini oshirish hamda milliy va xalqaro sertifikatlashtirish jarayonlarida ustunlikka ega bo‘lish imkonini beradi.


Dissertatsiyaning «**Qurilish materiallari sanoati ishlab chiqarish jarayonlarini sifat menejmenti tamoyillari asosida baholashning uslubiy asoslari**» deb nomlangan ikkinchi bobida qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining iste’molchi ehtiyojlarini qondirish va sifat darajasini aniqlashga bo‘lgan yondashuvlar amalga oshirilgan, bundan tashqari qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari mezonlari asosida aniqlash bo‘yicha yondashuvlar mavjud bo‘lib asosiy e’tibor qurilish materiallari sanoati mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlari mezonlari asosida ularning baholashga katta urg‘u berilgan, shu bilan birga qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat ko‘rsatkichlari mezonlari asosida baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Mazkur 1-rasmda sifat menejmenti tamoyillari bilan qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari o‘rtasidagi konvergensiya mantiqiy ketma-ketlikda ifodalangan. Konvergensiya bu yerda alohida boshqaruv elementlarini birlashtirish emas, balki sifat, texnologiya, raqamli nazorat, ta’minot, ishlab chiqarish va bozor faoliyatini yagona tizim doirasida

¹⁸ O‘rganilgan manbalar asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

muvofiglashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Mazkur rasmning chap qismida sifat menejmentining asosiy tamoyillari aks ettirilgan. Iste'molchiga yo'naltirilganlik korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining texnik, funksional va ekspluatatsion xususiyatlarini bozor talabi bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Yetakchilik va mas'uliyat rahbariyatning sifat siyosatini belgilashi, zarur resurslarni ajratishi va natijalar uchun javobgarlikni aniq taqsimlashini talab etadi.

Jarayonli yondashuv va tizimli boshqaruv xomashyoni xarid qilishdan tortib tayyor mahsulotni sotishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'zaro bog'liq jarayonlar sifatida boshqarishga imkon beradi. Bunda har bir jarayon uchun kirish resurslari, bajariladigan operatsiyalar, nazorat ko'rsatkichlari va kutilayotgan natijalar belgilanadi. Doimiy takomillashtirish hamda riskni baholash esa ishlab chiqarishdagi og'ishlar, nuqsonlar, texnik nosozliklar va bozor xavflarini oldindan aniqlashga xizmat qiladi.



1-rasm. Sifat menejmenti tamoyillari va qurilish materiallari sanoati korxonalarining konvergentsiyasi¹⁹.

Qurilish obyektni barpo etishda sifat bilan bog'liq xarajatlarni uch toifaga ajratish mumkin:

-qurilish-montaj ishlarining (QMI) operatsion va qabul nazorati xarajatlari (ishchi hujjatlarga muvofiq erishilgan qurilish-montaj ishlari sifati darajasini aniqlash va tasdiqlash);

qurilish tashkilotining loyiha bosqichida belgilangan sifat darajasiga

¹⁹ Mualli tomonidan tizimlashtirilgan.

erishilmagan, ya'ni qurilish obyekti foydalanishga topshirilguniga qadar yuzaga kelgan

-nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha ichki xarajatlari;

-qurilish obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin, ya'ni kafolatli ekspluatatsiya davrida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish bo'yicha qurilish tashkilotining ichki xarajatlari.

Qurilish mahsuloti sifatini oshirishni maqsadli boshqarish uchun tasnif ishlab chiqilgan, unda sifat ko'rsatkichlari guruhlar bo'yicha taqsimlangan. Qurilish mahsuloti sifat darajasini baholovchi ko'rsatkichlarni hisoblash turli maqsadlarda amalga oshiriladi. Shunday maqsadlardan biri - qurilish obyektlarining turli iste'mol xususiyatlari hamda ularning iqtisodiy tavsiflarini o'zaro taqqoslash, ya'ni qurilish obyektining optimal sifat darajasini aniqlashdir.

Mazkur yondashuvda sifat past bo'lganda asosiy e'tibor ichki va tashqi yo'qotishlarga qaratilishi lozim (4-jadval).

4-jadval

Sifat menejmenti tizimidagi (SMT) boshqariladigan yo'qotishlar²⁰

Yuzaga kelish joyi bo'yicha	Omil bilan bog'liq yuzaga kelish sabablari bo'yicha
1. Ichki yo'qotishlar 1.1. Qurilish materiallaridagi nuqsonlarni bartaraf etish xarajatlari 1.2. Loyiha-smeta hujjatlarini tuzatish xarajatlari 1.3. Texnika va mexanizmlarni rejadan tashqari ta'mirlash xarajatlari 1.4. Qurilish ishlari davomida sifat ta'minlanmagani sababli resurslar yo'qotilishi 1.5. Qurilish ishlarini qayta bajarish bilan bog'liq yo'qotishlar 1.6. Boshqa yo'qotishlar	1. Materiallar 1.1. Yetkazib beruvchi 1.2. Tashuvchi 1.3. Omborda buzilish 2. Mehnat 2.1. Malakasiz mehnat 2.2. Xatolar 2.3. Intizom 3. Texnika va mexanizmlar 3.1. Eskirgan 3.2. Nosoz 4. Infratuzilma 4.1. Energiya ta'minoti 4.2. Axborot 5. Boshqaruv 5.1. Bo'limlar 5.2. Yuqori rahbariyat
2. Tashqi yo'qotishlar 2.1. Buyurtmachiga topshirilgan obyektga kafolatli ta'mirlash va nuqsonlarni bartaraf etish 2.2. Qurilish ishlari sifati bo'yicha buyurtmachining reklamatsiyalari va e'tirozlari	

Qurilishda sifat menejmenti tizimi (SMT) samaradorligini baholash optimallashtirish modellari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Optimallashtirish mezonlari sifatida quyidagilar ko'rib chiqilishi mumkin. Qurilish materiallari korxonalarining foydasi, qurilish muddati va barpo etilayotgan obyektlar sifati ustunlik qilmoqda. Qurilish materiallari korxonalarini strategik darajada boshqarish vazifasi quyidagi formulalar orqali ifodalanishi mumkin:

«Cheklov – foyda»

$$C - S_n = P_n \rightarrow \max, \quad (1)$$

²⁰ В.С. Степанова, М.С. Фролова. Показатели качества и оценка эффективности системы менеджмента качества в строительстве. Известия вузов. Инвестиции. Строительство. Недвижимость № 2 (7) 2014.

C-obyekt qurilishining smeta qiymati;

Pn-qurilish tashkilotining qurilish obyekti bo'yicha rejalashtirilgan foydasi;

Sn-obyekt qurilishining qurilish boshlanishi oldidagi rejalashtirilgan tannarxi.

$$S_n = S_{nnp} + S_{smk} \quad (2)$$

S_{nnp} -qurilish-montaj ishlari obyektining ishlarni bajarish loyihasi asosida aniqlangan rejalashtirilgan tannarxi;

S_{smk} -qurilish obyekti bo'yicha sifat menejmenti tizimini (SMT) tashkil etish uchun rejalashtirilgan xarajatlar.

Qurilish obyektini barpo etishda SMT uchun xarajatlar NNP bosqichida har bir tadbir bo'yicha belgilangan me'yoriy miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

«Cheklov - qurilish muddatlari»

$$T_{rasch} \leq T_{dog} \quad (3)$$

T_{rasch} -obyekt qurilishining hisobiy davomiyligi;
 T_{dog} - obyekt qurilishining shartnoma bo'yicha belgilangan davomiyligi.

«Cheklov - qurilish sifati»:

$$k_{fi} \leq K_i \quad (4)$$

K_{fi} -obyektdagi i-ishning haqiqiy sifati;
 K_i -obyektdagi i-ish sifati uchun texnik talablar asosida belgilangan me'yoriy qiymat.

Obyektni barpo etish jarayonida rejalashtirilgan va haqiqiy xarajatlarning doimiy monitoringini ta'minlash zarur:

$$S_f = S_{fsmr} + S_{fsmk} + S_{fb} + U_f \quad (5)$$

S_f -obyekt qurilishining haqiqiy tannarxi;

S_{fsmr} -qurilish-montaj ishlarining haqiqiy tannarxi;

S_{fsmr} - sifat menejmenti tizimini (SMT) tashkil etish uchun haqiqiy xarajatlar;

S_{fb} -brakni bartaraf etish xarajatlari;

U_f - ishlarni bajarish jarayonining yomon tashkil etilishi bilan bog'liq noishlab chiqarish yo'qotishlari.

Shunday qilib, qurilish obyektini barpo etishda SMTni optimallashtirishning lokal mezoni sifatida brakni bartaraf etish xarajatlari hamda qayta tiklanmaydigan resurslarning noishlab chiqarish yo'qotishlarini qabul qilish mumkin.

$$S_{fsmk} + S_{fb} + U_f \rightarrow \min \quad (6)$$

Qurilishda sifat menejmenti tizimini (SMT) yaratish, keltirilgan maqsadli funksiyalar va cheklovlarni hisobga olgan holda, obyekt qurilishi qiymati bilan sifati o'rtasidagi optimal nisbatni topish imkonini beradi.

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini baholash yuzasidan iste'molchiga yo'naltirilganlik yondashuvi asosida qurilish materiallari

sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini baholashda mahsulotlarning iste'molchi ehtiyojlari, kutilayotgan sifati, ishonchliligi, xavfsizligi va bozor talablariga mosligi ustuvor mezon sifatida qabul qilinadi hamda jarayon samaradorligi iste'molchining qoniqish darajasi orqali ham baholanadi. Mazkur yondashuv mahsulotning bozor talablari, standartlar va iste'molchi kutilmalariga qay darajada mos kelayotganini baholaydi. Ushbu yondashuv asosida muvofiqlik koeffitsienti, nuqsonli mahsulot ulushi, mijozlar shikoyatlari koeffitsienti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi va iste'molchilarning qoniqish indeksi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash imkoni yaratiladi. Muvofiqlik koeffitsienti o'z navbatida standartga to'liq javob beradigan mahsulotlar sonining jami tekshirilgan mahsulotlar soniga nisbati orqali aniqlanadi.

$$K_m = \frac{N_m}{N_j} \times 100 \quad (7)$$

Bu yerda:

K_m - mahsulotlarning standartga muvofiqlik koeffitsienti, %;

N_m - standartga to'liq javob beradigan mahsulotlar soni;

N_j - jami tekshirilgan mahsulotlar soni.

O'z navbatida mahsulotlarning standartlarga muvofiqlik koeffitsienti nuqsonli mahsulot ulushi esa nuqsonli mahsulotlar sonining jami tekshirilgan mahsulotlar soniga nisbati orqali aniqlanadi.

$$K_n = \frac{N_n}{N_j} \times 100 \quad (8)$$

Bu yerda:

K_n - nuqsonli mahsulotlar ulushi, %;

N_n - nuqsonli mahsulotlar soni.

Navbatdagi mijozlar shikoyatlari koeffitsienti esa kelib tushgan shikoyatlar sonining sotilgan mahsulotlar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{sh} = \frac{N_{sh}}{N_s} \times 100 \quad (9)$$

Bu yerda:

K_{sh} - shikoyatlar koeffitsienti, %;

N_{sh} - kelib tushgan shikoyatlar soni;

N_s - sotilgan mahsulotlar soni.

Navbatdagi qaytarilgan mahsulotlar ulushi formulasini aniqlashda qaytarilgan mahsulotlar sonining sotilgan mahsulotlar soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_q = \frac{N_q}{N_s} \times 100 \quad (10)$$

Bu yerda:

K_q - qaytarilgan mahsulotlar ulushi, %;

N_q - qaytarilgan mahsulotlar soni.

Navbatdagi iste'molchilar qoniqish indeksi formulasini aniqlashda quyida keltirilgan formula qo'llaniladi.

$$I_{iq} = \frac{\sum_{i=1}^n b_i \cdot w_i}{\sum_{i=1}^n w_i} \quad (11)$$

Bu yerda:

I_{iq} - iste'molchi qoniqish indeksi;

b_i - i-kriteriy bo'yicha baho;

w_i - i-kriteriy vazni.

O'z navbatida jarayon imkoniyati indeksi ham quyida keltirilgan formula orqali aniqlanadi.

$$C_{pk} = \min\left(\frac{USL - \mu}{3\sigma}, \frac{\mu - LSL}{3\sigma}\right) \quad (12)$$

Bu yerda:

C_{pk} - jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati;

USL - yuqori chegara;

LSL - quyi chegara;

μ - o'rtacha qiymat;

σ - standart og'ish.

O'z navbatida jarayon samaradorligi koeffitsienti chiqishdagi yaroqli mahsulot hajmining kirishdagi xomashyo yoki yarim tayyor mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$K_{js} = \frac{Q_{chiq}}{Q_{kir}} \times 100 \quad (13)$$

Bu yerda:

K_{js} - jarayon samaradorligi, %;

Q_{chiq} - chiqishdagi yaroqli mahsulot hajmi;

Q_{kir} - kirishdagi xomashyo yoki yarim tayyor mahsulot hajmi.

Bundan tashqari jarayondagi nuqsonlar darajasini aniqlashda har bir bosqichda nuqson chiqqan mahsulot hajmining ushbu bosqichdagi jami mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

$$D_i = \frac{q_{ni}}{q_{ji}} \times 100 \quad (14)$$

Bu yerda:

D_i - i-bosqichdagi nuqsonlar darajasi, %;

q_{ni} - i-bosqichda nuqson chiqqan mahsulot hajmi;

q_{ji} - i-bosqichdagi jami mahsulot hajmi.

Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari ishlab chiqaruvchilari nafaqat tayyor mahsulot sifatini, balki foydalanilayotgan xomashyo sifatini ham va, albatta, butun texnologik jarayonni qat'iy nazorat qilishlari shart²¹. Mavjud mezonlar bo'yicha qurilish mahsuloti sifat ko'rsatkichlari nomenklaturasi 5-jadvalda keltirilgan.

Qurilish materialini tanlash va uni qurilish konstruksiyasida qo'llash maqsadga muvofiqligini asoslash uning real yuklamalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. Material unga ta'sir etuvchi barcha kuchlarga ishonchli ravishda bardosh berishi kerak: ayrim materiallar siquvchi kuchlarga turg'un

²¹ Баурина С. Б. Управление качеством в отраслях материального производства: монография. Саранск: ООО «13РУС-ПРИНТ», 2015. 176 с.

qarshilik ko'rsata oladi, boshqalari esa cho'zuvchi kuchlar ta'siriga yaxshi qarshilik ko'rsatadi, egilish, siljish, yorilish va boshqalarni yuzaga keltiruvchi kuchlar ta'sirida materiallarning reaksiyasi ham bir xil bo'lmaydi. Shu bilan birga materialning kutilayotgan fizik (masalan, harorat tebranishlari) va kimyoviy (ishqorlar, kislotalar, tuz eritmaları) omillar ta'siriga chidamliligi ham muhimdir.

5-jadval

Qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalari sifat ko'rsatkichlarining mezonlar bo'yicha nomenklaturasi²².

Mezonlar va asosiy turlar nomi	Ko'rsatkichlar
Texnik daraja	
Tayinlanish ko'rsatkichlari	Mustahkamlik, yoriqqa chidamlilik, qattqlik, olovbardoshlik, sovuqqa chidamlilik, seysmik chidamlilik, namlikka chidamlilik, issiqlik izolyatsiyasi, quyosh radiatsiyasi ta'siriga chidamlilik, tovush izolyatsiyasi, yorug'lik o'tkazuvchanligi
Ishonchlik ko'rsatkichlari (uzoq xizmat qilish, saqlanuvchanlik)	Nosozliklarning yuzaga kelish ehtimoli (shu jumladan buzilishlar, xossalarning yo'qolishi), korroziyaga chidamlilik, saqlash vaqti hamda shartlari, xizmat muddati
Konstruktivlik ko'rsatkichlari	Geometrik o'lchamlar, tarkib, shakl, tuzilma
Texnologiklik ko'rsatkichlari	Tayyorlashning mehnat sig'imi, energiya sig'imi, material sig'imi, mexanizatsiya va avtomatlashtirish darajasi
Ta'mirga yaroqlilik ko'rsatkichlari (tiklanuvchanlik)	Nosozlik yuz berganda tiklashning davomiyligi, qiymati va mehnat sig'imi
Transportboplik ko'rsatkichlari	Massa, qadoqlashning material sig'imi va mehnat sig'imi, gabaritlar, konteynerlashtirish imkoniyati
Moslik ko'rsatkichlari	Ruxsat etilgan og'ishlar, o'lchamlar, ulanish turlarining o'zaro moslashuvi, xizmat muddatlarining muvofiqligi
Estetik ko'rsatkichlar	Badiiy ifodalilik, yuzalar sifati, tashqi ko'rinish
Ergonomik ko'rsatkichlar	Harorat rejimi, changlanganlik, toksiklik, vibratsiya darajasi, mahsulotdan foydalanish qulayligi
Barqarorlik	
Standartlar, qurilish me'yorlari va qoidalariga rioya qilish ko'rsatkichlari	Standartlar, qurilish me'yorlari va qoidalar, loyiha hujjatlariga rioya qilish ko'rsatkichlari, brak foizi, reklamasiyalar soni
Bir xillik ko'rsatkichlari	Mahsulot xossalarning miqdoriy qiymatlari nominaldan og'ishi, asosiy xossalarning variatsiya koeffitsienti
Iqtisodiy samaradorlik	
Iqtisodiy ko'rsatkichlar	Solishtirma kapital qo'yilmalar, rentabellik, tannarx, yillik iqtisodiy samara
Raqobatbardoshlik	
Patent-huquqiy ko'rsatkichlar	Patent himoyasi va patent tozaligi ko'rsatkichlari, mahsulot eksportining mavjudligi

Ommaviy miqdorda ishlab chiqariladigan har bir materialning sifat tavsiflari uchun standartlar mavjud. Aksariyat materiallar uchun tavsiya etiladigan yoki majburiy sinov usullari belgilangan standartlar ham mavjud. Davlat standartlarida (GOSTlarda) materialning sifat tavsifi uchun asosiy ma'lumotlar keltiriladi va ko'pincha u bir yoki bir nechta belgilar bo'yicha tasniflanadi, chiqarilayotgan mahsulot markirovkasi bilan xossalar ko'rsatkichlarining aniq son qiymatlari ko'rsatiladi, materialni qabul qilish va saqlash qoidalarini belgilanadi.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash orqali ularning ichki imkoniyatlari, iqtisodiy qudrati va tashqi imkoniyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin bo'ladi. Shunday ekan,

²² Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

muallif fikricha korxona sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi yagona me'yoriy koeffitsiyent mavjud bo'lishi talab etiladi.

Muallif fikricha ushbu ko'rsatkichni aniqlash imkoniyati mavjud bo'lib, sifat ko'rsatkichini tashkil etuvchi barcha ko'rsatkichlarning umumiy integral koeffitsiyenti orqali ifodalanishini anglatadi. Ushbu ko'rsatkich qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonasi integral sifat ko'rsatkichlarining tarkibiy qismlari sifatida mahsulotlarning standartga muvofiqlik koeffitsienti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar koeffitsienti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste'molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi, har bir bosqichdagi nuqsonlar darajasi kabi ko'rsatkichlarning o'rtacha integral ko'rsatkichi sifatida keltirilgan.

$$I_s = (K_m + K_n + K_{sh} + K_q + I_{iq} + C_{pk} + K_{js} + D_i) / 8 \quad (15)$$

Bu yerda: I_s -korxonadagi sifat integral indeksi.

K_m -mahsulotlarning standartga muvofiqlik koeffitsienti, %;

K_n -nuqsonli mahsulotlar ulushi, %; K_{sh} -shikoyatlar koeffitsienti, %;

K_q - qaytarilgan mahsulotlar ulushi, %; I_{iq} -iste'molchi qoniqish indeksi;

C_{pk} - jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati;

K_{js} - jarayon samaradorligi, %; D_i -i-bosqichdagi nuqsonlar darajasi, %.

Mazkur formula asosida qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat indeksining umumiy yagona qiymati hosil qilinadi va qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy rivojlanganlik holatini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi «**O'zbekiston Respublikasi qurilish materiallari sanoati korxonalari iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlari tahlili**»ga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda O'zbekistonda qurilish tarmog'i rivojlanishining iqtisodiy holati o'rganilgan. Shu bilan birga turli mulkchilik shakllariga ega qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy va sifat ko'rsatkichlari tahlil qilingan hamda qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi 3 yil ichida aniqlangan sifatsiz qurilish-montaj ishlari bo'yicha 4 mingdan ziyod obyektida qurilish ishlari to'xtatilib, uch yil mobaynida 1,5 mingga yaqin buzdirish ishlari amalga oshirilgan.²³ Qurilish mahsuloti sifatining oshirilishi loyihalash, qurilish materiallari, detallar va konstruksiyalarni ishlab chiqarish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, shuningdek bino va inshootlardan foydalanish jarayonida moddiy hamda mehnat resurslarining sezilarli darajada tejalishiga olib keladi.

2015-2024 yillarda qurilish tarmog'ining o'sishi jadal sur'atlar bilan amalga oshgan va o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,30 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. O'z navbatida bu shuni anglatadiki, ushbu davrda mamlakatda YAIM o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti ham 1,21 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Qolaversa ushbu o'rganilayotgan davrda sanoat tarmog'ida o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,27 ga, qishloq xo'jaligi tarmog'ida o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti

²³ https://senat.uz/plenary-sessions/post-3054?utm_source=chatgpt.com

1,18 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu ham shuni anglatadiki, bugungi kunda qurilish tarmog'ining tez sur'atlar bilan ortib borishi va barcha boshqa yirik tarmoqlardanda tez rivojlanish va o'rtacha o'zgarish ko'rsatkichiga ega hisoblanmoqda. Keltirilgan davrda doimiy aholi sonining ortib borishi o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo'lganligini, iqtisodiyot tarmoqlarida bandlar sonining ortib borishi o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo'lganligi, aholining umumiy daromadlari miqdori manfaatdorligi o'rtacha koeffitsiyenti 1,18 ga teng bo'lganligi va aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot miqdori o'rtacha o'zgarish koeffitsiyenti 1,16 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Jadval tahlilidan ko'rish mumkinki, YAIM miqdori koeffitsiyenti va aholi daromadlari o'rtasida tafovut mavjud, bundan tashqari doimiy aholi soni koeffitsiyenti va iqtisodiyot tarmoqlaridagi band bo'lganlar koeffitsiyenlari o'rtasida ham katta tafovut mavjud. Bu ham shuni ko'rsatadiki bugungi kunda aholi sonining ortishi va band bo'lganlar sonining ortishi o'rtasida katta farq mavjudligidir.

Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida sifat menejmenti tizimini joriy etish, birinchi navbatda, texnologik jarayonlarni standartlashtirish, ishlab chiqarishda nazorat nuqtalarini belgilash, ishchi kadrlar malakasini oshirish va resurs tejamkor usullarni joriy etishni talab etadi. Bu orqali nafaqat mahsulot sifati yaxshilanadi, balki korxonalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari ham sezilarli darajada o'sadi. Masalan, ISO 9001 standarti asosida faoliyat yuritayotgan qurilish materiallari korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 15-20% ga oshishi, mahsulot yo'qotishlari esa 2-3 barobar kamayishi mumkin (6-jadval).

6-jadval

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari²⁴

Yillar	Ishlab chiqarish hajmi, trln so'mda	Nominal zanjirsimon o'sish sur'ati, %	Eksport hajmi, mln AQSh dollari	Sifat sertifikatiga ega korxonalar ulushi, %
2018	12,9	100,0	80,4	12
2019	16,8	130,2	140,0	16
2020	22,0	131,0	257,0	21
2021	24,2	110,0	438,1	29
2022	30,7	126,9	611,0	35
2023	34,2	111,4	645,0	42
2024	42,0	122,8	831,0	51

Ushbu jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatining ishlab chiqarish, eksport va sifat menejmentini joriy etish ko'rsatkichlarida 2018-2024-yillar davomida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Tarmoqda ishlab chiqarish hajmi 2018-yildagi 12,9 trln so'mdan 2024-yilda 42,0 trln so'mga yetib, 29,1 trln so'mga yoki 3,3 barobarga oshgan. Davr davomida ishlab chiqarish hajmining o'rtacha yillik nominal o'sishi qariyb 21,7 foizni tashkil etgan. Eng yuqori zanjirsimon o'sish sur'ati 2020-yilda 131,0 foiz, 2019-yilda esa 130,2 foiz darajasida qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich 2021-yilda 110,0 foizni tashkil qilgan.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tovonidan tuzilgan.

Ijobiy ko'rsatkichlar uchun, ya'ni qiymati qancha yuqori bo'lsa, sifat holati shuncha yaxshi baholanadigan ko'rsatkichlar uchun:

$$Z_{ij} = X_{ij} / X_{max} \quad (16)$$

Salbiy ko'rsatkichlar uchun, ya'ni qiymati qancha past bo'lsa, sifat holati shuncha yaxshi baholanadigan ko'rsatkichlar uchun:

$$Z_{ij} = X_{min} / X_{ij} \quad (17)$$

Bu yerda Z_{ij} - i-korxona bo'yicha j-ko'rsatkichning normallashtirilgan qiymati; X_{ij} - i-korxonadagi amaldagi ko'rsatkich; X_{max} - shu ko'rsatkich bo'yicha korxonalar orasidagi eng yuqori qiymat; X_{min} - salbiy ko'rsatkichlar bo'yicha eng past, ya'ni eng yaxshi qiymat.

7-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2018-2024 yillarda qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi qariyb 2,6 barobarga oshgan. Bu davrda sifat menejmenti tizimini joriy etgan korxonalar soni ham izchil o'sgan. Agar 2018 yilda faqat 12% korxonalar ISO 9001 standarti bo'yicha sertifikatga ega bo'lgan bo'lsa, 2024 yilga kelib bu ko'rsatkich 51%ga yetgan. Bu holat, o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport hajmining o'sishiga xizmat qilgan. Mazkur jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, ISO 9001 va ISO 14001 standartlarini joriy etgan korxonalarda mahsulot brak darajasi o'rtacha 3-4 barobarga kamaygan. Bu nafaqat sifatni yaxshilash, balki resurs tejamkorlik va energiya sarfini optimallashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, sifat boshqaruvi tizimi faoliyati xodimlar malakasini oshirish, mehnat intizomini kuchaytirish va ishlab chiqarish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilgan.

7-jadval

Qurilish materiallari korxonalarida 2020-2024 yillarida sifat menejmentini joriy etish natijalari²⁵

Korxonalar nomi	ISO standarti joriy etilgan yil	Mahsulot brak darajasi, % (joriy etishdan avval)	Mahsulot brak darajasi, % (joriy etilgandan keyin)	Ishlab chiqarish samaradorligi o'sishi, %	Energiya tejamkorlik, %
“Qo‘qon sement zavodi” AJ	2020	9,5	3,2	16,5	11
“Farg‘ona Construction Mix” MChJ	2021	8,1	2,7	18,4	13
“Angren Shifer” AJ	2022	7,6	2,4	14,8	9
“Navoiy Construction Materials” MChJ	2022	6,8	2,1	15,2	12
“Tashkent Beton Servis” MChJ	2023	8,9	3,0	17,1	10
«Trest 12» AJ	2020	7,1	3,4	14,6	11
«Prime ceramics» MCHJ QK	2022	8,2	5,2	11,3	8
«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	2023	8,7	4,9	16,7	9,8

Ushbu hisob-kitobda korxonalar bo'yicha sifat integral indeksi normallashtirilgan ko'rsatkichlar asosida aniqlandi. Normallashtirishdan maqsad-turli o'lchov birliklarida berilgan ko'rsatkichlarni yagona 0-1 oralig'iga keltirish va

²⁵ Qurilish materiallari korxonalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ularni o‘zaro taqqoslash imkonini yaratishdir. Aytish lozimki formula 8 ta tarkibiy ko‘rsatkichni qamrab olgan bo‘lsada quyidagi namunaviy hisob-kitob esa foydalanuvchi so‘rovida keltirilgan 7 ta ko‘rsatkich bo‘yicha xisob-kitob amalga oshirildi (8-jadval).

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat integral indeksini aniqlash bo‘yicha keltirilgan formula, asosida yuqorida tahlil qilingan uchta qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha integral ko‘rsatkichlarini aniqlab olamiz. Demak, “Trest 12” AJ qurilish materiallari sanoati korxonasining sifat integral indeksi 0,864 ga bo‘lganligi ko‘rish mumkin.

$$I_{s1}=(0,976+0,963+0,679+0,932+0,894+0,956+0,647)/7=0,864$$

"Prime ceramics" MCHJ QK qurilish materiallari sanoati korxonasining sifat ko‘rsatkichlari integral ko‘effitsiyenti 1,0 ga teng bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

$$I_{s2}=(1,0+1,0+1,0+1,0+1,0+1,0+1,0)/7=1,0$$

O‘z navbatida “Silver mirror glass” MCHJ qurilish materiallari sanoati korxonasining sifat ko‘rsatkichlari integral ko‘effitsiyenti 0,798 ga teng bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi.

$$I_{s3}=(0,958+0,932+0,528+0,898+0,811+0,923+0,537)/7=0,798$$

Ushbu tahlillarning o‘zi ham o‘rganilayotgan qurilish materiallari sanoati korxonasi haqida obyektiv ma‘lumotni yetarlicha taqdim eta olmaydi. Shuning uchun ekspert-so‘rovlari asosida shakllantirilgan ko‘effitsiyentlarni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

8-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalari bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlarining dastlabki va integral indeks qiymatlari²⁶

Korxonalar bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlarining dastlabki qiymatlari							
Korxona nomi	Standartga mos mahsulotlar ulushi, %	Sifat nazorati qamrovi, %	Qaytarilgan mahsulotlar ulushi, %	Iste‘molchi qoniqish indeksi	Jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati (Cpk)	Jarayon samaradorligi, %	Nuqsonlar darajasi, %
«Trest 12» AJ	94,5	92,0	2,8	82	1,18	87	3,4
«Prime ceramics» MCHJ QK	96,8	95,5	1,9	88	1,32	91	2,2
«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	92,7	89,0	3,6	79	1,07	84	4,1
Normallashtirilgan ko‘rsatkichlar va sifat integral indeksi							
Korxona nomi	Z1	Z2	Z3	Z4	Z5	Z6	Z7
«Trest 12» AJ	0,976	0,963	0,679	0,932	0,894	0,956	0,647
«Prime ceramics» MCHJ QK	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000
«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	0,958	0,932	0,528	0,898	0,811	0,923	0,537

Yuqoridagi tahlil natijalari asosida qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat darajasini boshqarishda korxonalarning mahsulotlarning standartga muvofiqlik ko‘effitsienti, nuqsonli mahsulotlar ulushi, shikoyatlar ko‘effitsienti, qaytarilgan mahsulotlar ulushi, iste‘molchi qoniqish indeksi, jarayonning standart chegaralarga mos ishlash qobiliyati, jarayon samaradorligi va har bir bosqichdagi nuqsonlar darajalarini integral baholash bo‘yicha «yuqori» ($1,00 \geq I_s \geq 0,85$), «barqaror»

²⁶ O‘z sanoat qurilish materiallari uyushmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

($0,84 \geq I_s \geq 0,70$), «xavfli» ($0,69 \geq I_s \geq 0,50$) va «yuqori xavfli» ($0,00 \geq I_s \geq 0,49$) koeffitsiyent chegaralari ekspertlar xulosalari asosida shakllantirilgan.

Ushbu tahlillarning o'zi ham o'rganilayotgan qurilish materiallari sanoati korxonasi haqida obektiv ma'lumotni yetarlicha taqdim eta olmaydi. Shuning uchun ekspertlar so'rovlari asosida shakllantirilgan koeffitsiyentlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagi tahlililardan ko'rish mumkinki, qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat tizimi integral ko'rsatkichlari va iqtisodiy resurslar integral koeffitsiyentlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlarning mavjudligi korxonada sifat nazorati tizimiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

9-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumot²⁷

(koeffitsientlarda)

Ko'rsatkichlar	2022 yil			2023 yil			2024 yil			Multiplikativ koeffitsient		
	Trest 12 AJ	«Prime ceramics» MCHJ QK	«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	Trest 12 AJ	«Prime ceramics» MCHJ QK	«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	Trest 12 AJ	«Prime ceramics» MCHJ QK	«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ	Trest 12 AJ	«Prime ceramics» MCHJ QK	«SILVER MIRROR GLASS» MCHJ
Qurilish ishlari hajmi	1,16	1,18	1,59	1,40	1,24	1,29	1,41	0,56	1,32	1,32	0,99	1,40
Olingan sof foyda	1,23	1,47	1,59	0,75	1,83	1,29	0,75	0,75	1,32	0,91	1,35	1,40
Mehnat resurslari soni	1,15	1,47	1,26	1,20	1,97	1,20	1,21	1,01	1,22	1,19	1,48	1,23
Shundan:												
Doimiy ishchi va xodimlar soni	1,15	1,47	1,15	1,20	1,97	1,09	1,21	1,01	1,09	1,19	1,48	1,11
Mavsumiy ishchilar soni	-	-	1,36	-	-	1,29	-	-	1,31	-	-	1,32
Ishchi va xodimlar orasida sug'urtalanganlar soni	1,15	1,00	1,15	1,20	2,56	1,09	1,21	0,96	1,09	1,19	1,51	1,11
Korxonada o'rtacha ish haqi miqdori	1,40	1,14	1,57	1,11	1,13	1,00	1,13	1,26	1,18	1,21	1,18	1,25
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati	1,16	1,84	1,47	1,13	2,04	1,29	1,13	1,50	1,31	1,14	1,79	1,36
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	0,93	1,98	1,47	1,04	2,70	1,29	1,05	0,98	1,31	1,01	1,89	1,36
Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati	1,07	1,89	1,44	1,16	2,42	1,17	1,18	1,11	1,22	1,14	1,81	1,28
Ishdan bo'shaganlar soni	0,84	-	-	1,19	-	-	1,19	-	-	1,07	-	-

Quyida keltirilgan jadval ma'lumotlarining tahlil qilinishi natijasida shuni aytish mumkinki, mulkchilik shakllari bo'yicha aralash va xususiy mulkchilik shakllariga ega hamda turlicha aylanma mablag'larga ega bo'lgan tadbirkorlik subektlari, jumladan Trest 12 AJ, «Prime ceramics» MCHJ qo'shma korxonasi va «SILVER MIRROR GLASS» MCHJ korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan (9-jadval).

Va shu bilan birga qurilish materiallari korxonalarining sifat jarayonlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlil qilingan qurilish materiallari sanoati korxonalarida moliyaviy resurs darajasi ($M_f=1,025$), ishlab chiqarish resurs

²⁷ Qurilish korxonalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

(Ich_f=1,216), marketing resurs (Mar_f=1,011), boshqaruv resurs (B_f=1,321), mehnat resurs (Meh_f=1,054), innovatsion resurs (In_f=1,002), ehtimoliy resurs (E_f=1,065)ning maqbul chegaralari iqtisodiy resursni yuqori darajasini ta'minlashi biz tomondan hisoblab chiqilgan.

Korxonaning iqtisodiy resurs koeffitsiyentini aniqlash bo'yicha biz tomondan keltirilgan formula, asosida yuqorida tahlil qilingan uchta qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy resurs bo'yicha integral ko'rsatkichni aniqlab olamiz. Demak, "Trest 12" AJ qurilish sanoati korxonasining integral iqtisodiy resurs koeffitsiyenti

$$If_{qk1} = (1,3 * 1,3 * 1,3 * 1,3 * 1,3 * 0,6 * 0,91)^{1/7} = 1,11$$

1,11 ga bo'lganligi ko'rish mumkin. "Prime ceramics" MCHJ QK qurilish materiallari sanoati korxonasining iqtisodiy resurs integral koeffitsiyenti

$$If_{qk2} = (1,4 * 1,35 * 1,4 * 1,4 * 1,2 * 0,92 * 0,94)^{1/7} = 1,21$$

1,21 ga teng bo'lganligini va Silver Mirror Glass MCHJ qurilish materiallari sanoati korxonasining iqtisodiy resurs integral koeffitsiyenti 1,04 ga teng bo'lganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

$$If = (1,3 * 1,26 * 1,3 * 1,32 * 1,32 * 0,4 * 0,93)^{1/7} = 1,04$$


Ushbu tahlillarning o'zi ham o'rganilayotgan qurilish materiallari sanoati korxonasi haqida obektiv ma'lumotni yetarlicha taqdim eta olmaydi. Shuning uchun ekspertlar so'rovlari asosida shakllantirilgan koeffitsiyentlarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillardan ko'rish mumkinki, qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat tizimi integral ko'rsatkichlari va iqtisodiy resurslar integral koeffitsiyentlari o'rtasida korrelyatsion bog'liqlarning mavjudligi korxonada sifat nazorati tizimiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Dissertatsiyaning «**Qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish**» deb nomlangan dissertatsiya ishining to'rtinchi bobida sifat ko'rsatkichlarini oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari keltirilgan, qurilish materiallari sanoati korxonalari sifat ko'rsatkichlarini ko'p omilli bog'lanishlar asosida modellashtirish orqali sinergetik samaradorlikni oshirish yo'llari belgilangan hamda qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlarini shakllantirish ssenariylari keltirilgan.

Muallif fikricha, har bir hududda yirik qurilish materiallari sanoati korxonalari negizida uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur klasterlar qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan boshlab, qurilish obyektlarini loyihalashtirish, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish hamda foydalanishga tayyor ko'p qavatli uy-joylarni barpo etishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni yagona qo'shilgan qiymat zanjiriga birlashtirishi lozim. Shu bilan birga, klaster faoliyati doirasida ishchi va xodimlarning mehnat xavfsizligini ta'minlash, ularning hayoti va sog'lig'ini turli ishlab chiqarish xavflaridan sug'urtalash tizimini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi (2-rasm).

"Trest 12" AJ misolida uy-joy qurilishi klasterini tashkil etish, qo'shilgan qiymat zanjirini boshqarish hamda sifat nazorati va sifat menejmentini klaster faoliyatining markaziy boshqaruv elementi sifatida shakllantirish mexanizmini

ifodalaydi. Maxkur rasmda uy-joy qurilishi klasteri qurilish materiallari ishlab chiqarishdan boshlab tayyor ko'p qavatli uy-joylarni yakuniy iste'molchiga yetkazishgacha bo'lgan jarayonlarni yagona tashkiliy-iqtisodiy tizimga birlashtiruvchi markaziy tuzilma sifatida tasvirlangan. Ushbu tizimda qurilish-pudrat tashkiloti, loyiha-qidiruv tashkilotlari, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar, davlat nazorati va institutsional muvofiqlashtirish organlari, marketing va realizatsiya tashkilotlari, sug'urta va moliyaviy institutlar hamda oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Rasmda sifat nazorati va sifat menejmentiga alohida urg'u berilgani mazkur mexanizmning asosiy ilmiy-amaliy jihatini tashkil etadi, chunki sifat nazorati faqat yakuniy obyektni qabul qilish bosqichida emas, balki loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash, qurilish materiallarini ishlab chiqarish, laboratoriya tekshiruvlari, qurilish-montaj ishlarini bajarish, texnik reglamentlar va me'yorlarga muvofiqlikni baholash, nuqsonlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek yakuniy sifat auditini amalga oshirish jarayonlarining barchasiga ta'sir ko'rsatadi.



2-rasm. “Trest 12” AJ misolida qurilish klasterini takshil etish va sifat menejmentini shakllantirish mexanizmlari²⁸.

Ushbu rasmdagi markaziy “Sifat nazorati va sifat menejmenti” bloki barcha asosiy ishtirokchilar bilan tizimli bog'langan bo'lib, bu sifatni ta'minlash jarayoni klasterining alohida bo'g'ini emas, balki barcha ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi doimiy boshqaruv funksiyasi ekanligini ko'rsatadi. Qurilish-pudrat tashkiloti sifat nazorati orqali qurilish-montaj ishlarini bosqichma-bosqich nazorat qiladi, ish hajmi, muddat va mehnat resurslaridan foydalanish

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

samaradorligini baholaydi hamda qurilish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklarni vaqtida bartaraf etadi.

10-jadval

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida resurslarni boshqarish funksiyalari²⁹

Resurslar turlari	Sifatni rejalashtirish va dalillarga asoslangan qaror qabul qilish	Jarayonlarni tashkil etish, muvofiqlashtirish va sifat risklarini boshqarish	Xodimlarni jalb etish va rag'batlantirish	Monitoring, nazorat, baholash va doimiy takomillashtirish
Moliyaviy resurslar	Mahsulot sifatini oshirish, laboratoriya bazasini rivojlantirish, uskunalarni modernizatsiya qilish va sertifikatlashtirish uchun zarur moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojni aniqlash hamda sifat xarajatlarini rejalashtirish	Sifatni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'larni ishlab chiqarish bo'linmalari, laboratoriyalar va texnik xizmatlar o'rtasida oqilona taqsimlash, moliyaviy risklarni boshqarish	Sifat ko'rsatkichlariga erishgan bo'linmalar va xodimlarni moddiy rag'batlantirish, sifatni yaxshilash bo'yicha takliflarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Sifat xarajatlari, nuqsonlarni bartaraf etish, qayta ishlash, kafolat va reklamatsiya xarajatlarini monitoring qilish, ularning samaradorligini baholash
Ishlab chiqarish-texnologik resurslar	Xomashyo, uskunar, texnologik quvvatlar va ishlab chiqarish jarayonlarining belgilangan sifat talablariga muvofiqligini rejalashtirish	Xomashyoni qabul qilishdan tayyor mahsulotni jo'natishgacha bo'lgan jarayonlarni tashkil etish, texnologik operatsiyalarni muvofiqlashtirish va sifatga ta'sir etuvchi risklarni kamaytirish	Ishlab chiqarish jarayonida sifat talablariga rioya qilgan jamoalarni rag'batlantirish, nuqsonsiz ishlab chiqarish tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash	Texnologik parametrlar, mahsulot mustahkamligi, o'lchami, tarkibi va boshqa sifat ko'rsatkichlarini nazorat qilish, aniqlangan og'ishlarni tartibga solish va jarayonlarni takomillashtirish
Marketing va iste'molchilar bilan munosabatlar resurslari	Iste'molchilarning mahsulot sifati, xavfsizligi, mustahkamligi, ekologikligi va energiya samaradorligiga bo'lgan talablarini o'rganish hamda sifat maqsadlariga kiritish	Marketing, ishlab chiqarish, logistika va savdo bo'linmalari faoliyatini iste'molchi talablariga muvofiqlashtirish, buyurtmalarni bajarishdagi sifat risklarini boshqarish	Iste'molchilar qoniqishini oshirishga hissa qo'shgan marketing va savdo xodimlarini rag'batlantirish, mijozlar bilan samarali aloqalarni qo'llab-quvvatlash	Iste'molchilar qoniqishi, murojaatlar, shikoyatlar, reklamatsiyalar, mahsulot qaytarilishi va bozor talablaridagi o'zgarishlarni monitoring qilish va baholash
Mehnat resurslari	Sifat menejmenti tizimi uchun zarur bo'lgan xodimlar soni, malakasi, bilim va ko'nikmalariga bo'lgan ehtiyojni aniqlash, o'qitish dasturlarini rejalashtirish	Xodimlarning sifat sohasidagi vakolatlari va mas'uliyatini belgilash, bo'linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish, mehnat va texnika xavfsizligi risklarini boshqarish	Xodimlarni sifatni yaxshilash jarayonlariga jalb etish, sifat to'garaklari va takliflar tizimini rivojlantirish, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish	Xodimlarning malakasi, mehnat intizomi, sifat talablariga rioya qilishi va ish natijalarini baholash, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha qayta o'qitishni tashkil etish
Innovatsion-investitsion resurslar	Yangi qurilish materiallari, resurs tejankor texnologiyalar, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari va sifat laboratoriyalarini rivojlantirish bo'yicha loyihalarni rejalashtirish	Innovatsion-investitsion loyihalarni ilmiy tashkilotlar, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish bo'linmalari bilan hamkorlikda amalga oshirish, loyiha risklarini boshqarish	Yangi mahsulot va texnologiyalar yaratgan xodimlar, muhandislar va tadqiqotchilarni rag'batlantirish, innovatsion faollikni qo'llab-quvvatlash	Innovatsion loyihalarining mahsulot sifati, tannarxi, resurs sarfi va ekologik ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash, samarali ishlanmalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish
Axborot va boshqaruv resurslari	Sifat siyosati, sifat maqsadlari, KPI, mas'uliyat va vakolatlarni belgilash, boshqaruv qarorlarini ishonchli axborotlar asosida shakllantirish	Sifat menejmenti jarayonlarini yagona tizimda tashkil etish, bo'linmalar o'rtasida axborot almashinuvini muvofiqlashtirish va boshqaruv risklarini kamaytirish	Rahbar va mutaxassislarni sifat maqsadlariga erishish, tashabbuskorlik va samarali boshqaruv qarorlari uchun rag'batlantirish	Ichki audit, rahbariyat tahlili, sifat ko'rsatkichlari va hujjatlar aylanishini nazorat qilish, boshqaruv tizimining natijadorligini baholash
Yetkazib beruvchilar va hamkorlik resurslari	Xomashyo va materiallar yetkazib beruvchilarga qo'yiladigan sifat mezonlarini belgilash, ishonchli hamkorlarni tanlash va uzoq muddatli hamkorlikni rejalashtirish	Yetkazib beruvchilar, sinov laboratoriyalari, loyiha, logistika va savdo tashkilotlari faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirish, ta'minot zanjiridagi sifat risklarini boshqarish	Sifatli xomashyo va xizmatlarni barqaror yetkazib berayotgan hamkorlarni iqtisodiy va tashkiliy jihatdan rag'batlantirish	Yetkazib beruvchilar faoliyati, xomashyo sifati, yetkazib berish muddatlari va aniqlangan nomuvofiqliklarni baholash, ularning reytingini shakllantirish
Ehtimoliy va risk resurslari	Mahsulot sifati, texnologik jarayonlar, xomashyo ta'minoti, uskunar va inson omili bilan bog'liq ehtimoliy risklarni oldindan aniqlash va baholash	Sifat risklarining oldini olish, ularning ta'sirini kamaytirish, favqulodda vaziyatlarda jarayonlar uzluksizligini ta'minlash bo'yicha choralarini tashkil etish	Risklarni erta aniqlagan, nuqsonlarning oldini olgan va xavfsizlikni ta'minlagan xodimlarni rag'batlantirish	Risklar reyestrini yuritish, nuqsonlar va nomuvofiqliklarning sabablarini tahlil qilish, tuzatuvchi hamda oldini oluvchi choralar natijadorligini baholash

Loyiha-qidiruv tashkilotlari bilan bog'liqlik loyiha-smeta hujjatlarining sifat ekspertizasi, muhandislik-geologik izlanishlar aniqligi va texnik-iqtisodiy yechimlarning asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan o'zaro aloqa esa sement, g'isht, yog'och, oyna

²⁹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

va boshqa qurilish materiallarining standart va texnik reglamentlarga muvofiqligini laboratoriya nazoratidan o'tkazish, sifat barqarorligini ta'minlash va qurilish obyektlariga yaroqli mahsulotlarni yetkazib berish imkonini yaratadi.

Navbatdagi keltirilgan 10-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, qurilish materiallari sanoati korxonalarida sifat menejmenti tamoyillari asosida resurslarni boshqarish bir-biri bilan uzviy bog'langan rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, monitoring, nazorat, baholash va doimiy takomillashtirish funksiyalarini kompleks amalga oshirishni talab etadi. Mazkur yondashuvda korxonaning barcha resurslari faqat ishlab chiqarish hajmini oshirishga emas, balki mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlash, nuqsonlarning oldini olish, iste'molchilar talablarini qondirish va sifat xarajatlarini optimallashtirishga yo'naltiriladi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan boshqaruv funksiyalarini o'zaro uyg'un holda qo'llash qurilish materiallari sanoati korxonasida sifat menejmenti tizimining yaxlitligini ta'minlaydi. Bunda moliyaviy, ishlab chiqarish, mehnat, marketing, innovatsion, axborot, hamkorlik va risk resurslari yagona sifat siyosati doirasida boshqariladi. Natijada mahsulot nuqsonlari va texnologik yo'qotishlar kamayadi, resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi, iste'molchilar qoniqishi ta'minlanadi hamda korxonaning ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshligi mustahkamlanadi.

Ajratib olingan natijaviy va unga ta'sir etuvchi omillarning barchasi 2014-2024 yillar davomida barqaror o'sish sur'atiga ega bo'lgan. Ajratib olingan asosiy omillarning bog'lanishi asosida yuz berayotgan o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni EVIEWS10 dasturidan foydalangan holda tahlil qilindi (11-jadval).

Dasturiy paket asosida amalga oshirilgan tahlil natijaviy omilning ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi $r=0,9999$ ga, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9997$ ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi.

Jadvaldagi ko'rsatkichlar tuzilgan ekonometrik modelning sifat xususiyatlari hamda ko'rsatkichlarning bog'lanish sifati yuqori darajada ekanligini ko'rsatmoqda. Jumladan, Fisher me'zoniga ahamiyati bog'liq bo'lgan VAR, Akiakayk axborot me'zoni, Shvars me'zoni, Xannan-Kuin me'zoni me'yoriy oraliqlarda joylashgan, faqat Darbin-Uotson me'zoni optimal oraliq bo'lgan 2 dan bir oz kichik. Bunga sabab sifatida ta'sir etuvchi omillar tarkibidagi ayrim omillarning mohiyat jihatidan bir-birini to'ldirishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Aniqlangan ma'lumotlardan foydalangan holda qurilish materiallari sanoati korxonalarining sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar asosida ko'p omilli ekonometrik model va ushbu jarayonni ifodalovchi regressiya tenglamasi tuzildi.

$$y = 0,011 \cdot x_3 + 38,757 \cdot x_4 + 2,794 \cdot x_6 - 10137,565$$

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida har xil ssenariylarni boshqalaridan prinsipial farqlashni belgilaydigan muqobillar sifatida o'sishning ustunlik qiluvchi manbalari, rivojlanishning cheklangan resurslarini taqsimlashdagi ustuvorliklar, iqtisodiyotda davlat ishtiroki ko'lamlari, talab etiladigan iqtisodiy islohotlarning izchilligi va tarkibini alohida baholash zarur bo'ladi.

Turli mulkchilik shakllariga ega qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiy resurslar ko'rsatkichlari prognozi³⁰

Koʻrsatkichlar	Meyoriy darajasi	2024	Vari- ant	Yillar boʻyicha prognoz			2024 nis- batan 2025 y.da, % da
				2025	2030	2035	
Trest 12” AJ							
Moliyaviy resurslar	min 1,2	4,26	1	4,22	4,74	5,55	130,3
			2	4,52	5,04	5,81	136,4
			3	4,61	5,22	5,94	139,4
Ishlab chiqarish resurslari	min 1	1,4	1	1,84	1,93	2,02	144,3
			2	1,22	1,42	1,53	109,3
			3	1,42	1,64	1,72	122,9
Marketing resurslari	min 1,3	1,5	1	2,03	2,02	4,1	273,3
			2	1,33	1,42	1,51	100,7
			3	1,52	1,62	1,71	114,0
Boshqaruv resurslari	min 1,5	1,5	1	1,71	1,93	2,02	134,7
			2	1,23	1,41	1,53	102,0
			3	1,44	1,62	1,72	114,7
Mehnat resurslari	min 1	1,3	1	1,31	1,34	1,41	108,5
			2	1,42	1,63	1,75	134,6
			3	1,63	1,81	1,92	147,7
Innovatsion resurslar	min 0,4	0,8	1	0,81	1,01	1,1	137,5
			2	1,22	1,42	1,53	191,3
			3	1,33	1,53	1,62	202,5
"Prime ceramics" MCHJ QK							
Moliyaviy resurslar	min 1,2	1,08	1	1,22	1,62	2,17	200,9
			2	1,66	2,04	2,53	234,3
			3	1,91	2,22	2,83	262,0
Ishlab chiqarish resurslari	min 1	1,5	1	1,42	1,33	1,42	94,7
			2	1,54	1,62	1,81	120,7
			3	1,92	1,93	2,01	134,0
Marketing resurslari	min 1,3	1,5	1	1,31	1,42	1,32	88,0
			2	1,52	1,51	1,57	104,7
			3	1,62	1,83	1,73	115,3
Boshqaruv resurslari	min 1,5	1,5	1	1,57	1,34	1,61	107,3
			2	1,92	1,42	1,93	128,7
			3	1,96	1,61	2,01	134,0
Mehnat resurslari	min 1	0,8	1	1,01	1,32	1,41	176,3
			2	1,21	1,74	1,83	228,8
			3	1,53	1,92	2,03	253,8
Innovatsion resurslar	min 0,4	0,9	1	0,81	0,94	1,01	112,2
			2	0,94	1,42	1,52	168,9
			3	1,31	1,61	1,83	203,3
“Silver mirror glass” MCHJ							
Moliyaviy resurslar	min 1,2	0,75	1	1,01	1,29	1,42	157,8
			2	1,29	1,42	1,97	218,9
			3	1,42	1,63	2,31	256,7
Ishlab chiqarish resurslari	min 1	1,36	1	1,3	1,46	1,57	174,4
			2	1,48	1,62	1,76	195,6
			3	1,6	1,81	1,92	213,3
Marketing resurslari	min 1,3	1,4	1	1,13	1,31	1,46	162,2
			2	1,29	1,92	2,42	268,9
			3	1,34	1,52	1,71	190,0
Boshqaruv resurslari	min 1,5	1,42	1	1,22	1,45	1,61	178,9
			2	1,42	1,61	1,77	196,7
			3	1,56	1,77	1,88	208,9
Mehnat resurslari	min 1	0,76	1	1,02	1,18	1,31	145,6
			2	1,33	1,52	1,71	190,0
			3	1,55	1,72	1,88	208,9
Innovatsion resurslar	min 0,4	0,5	1	0,61	0,74	1,01	112,2
			2	0,94	1,32	1,62	180,0

Odatda, korxonalarning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini amalga oshiradigan ssenariylarni ishlab chiqishda iqtisodiyot rivojlanishining shakllangan tartibi, trendlari va manbalari, shuningdek, har bir investitsiya oqimlari

